

Boshlang'ich sihf o'qish darslarida topishmoq ta'limi orqali o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish

*Qurbonova Zuxro Qutliyevna
Buxoro shahar 20-maktab boshlang'ich
sinf o'qituvchisi*

Topishmoq xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va boy janrlaridan biridir. Topishmoqlar odatda, xalqning urf-odatlarini, ruhiyati hamda axloqiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Topishmoqda narsaning bir necha xil belgilari yashirin, sirli holda beriladi va har bir topishmoqning zamirida topilishi lozim bo'lgan bir ma'no va kim?, nima? so'roqlariga yashirin javob yotadi. Odamlar shu so'roqlarga qarab, topishmoqda yashiringan narsani topishga harakat qiladilar. Ayniqsa, bolalar topishmoqdagi jumboqni bilishga, uni topishga juda qiziqadilar.

Topishmoqlar mavzusi tabiatda kundalik hayotda uchrab turadigan aniq hodisa va narsalardan iborat bo'ladi. Odatda, topilishi lozim bo'lgan narsa yoki hodisaning biror belgisi taqqoslash yo'li bilan obrazli ifodalanadi. Masalan, "Yer tagida oltin qoziq, u hammaga bo'lar oziq" (*sabzi*). Bu topishmoqda sabzining tus jihatdan oltin rangiga yaqinligi, shaklan qoziqqa o'xshashligi, uning tuproq ostida bitishi va tanovul qilish mumkinligi uning xarakterli jihatidir. "Pak-pakana bo'yi, yetti qavat to'ni" topishmog'ida pak-pakana bo'yi, yetti qavat to'ni kabi belgilar piyoz ekanligini ko'rsatib turadi. "Dum-dumaloq, jajji oy, chaqib esang, g'ij-g'ij moy" topishmog'idagi dum-dumaloq, chaqsang – g'ij-g'ij moy kabi belgilar uning yong'oq ekaniga ishoradir.

Ba'zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganligiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin: "Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, uy poylar" (*Qulf*).

Topishmoqlar ko'proq istiora asosiga qurilgan bo'lishi mumkin: "Bir parcha patir, olamga tatir" (*Oy*).

Ba'zan istiora usulida bir emas, balki bir necha narsa qatorlashib kelishi ham mumkin: "Bir otasi, bir onasi, necha yuz ming bolasi" (*Quyosh, Oy, yulduzlar*).

Mubolag'a yo'li bilan yaratilgan topishmoqlar ham anchagina: "Bir chuqurda ming chuqur" (*Angishvona*), "O'zi bir qarich, soqoli ming qarich" (*Ip, igna*).

Ba'zi topishmoqlar so'zlarning ohangdosh bo'lib kelishiga asoslanadi: "Zuv-zuv borar, zuv-zuv kelar, doston o'qir, g'alvir to'qir" (Ari), "Osti tosh, usti tosh, o'rtasida jonli bosh" (Toshbaqa).

Savol-javob shaklidagi topishmoqlar bolalar qiziqishini orttirishi bilan ajralib turadi:

-U nimadir, havodagi do'langan?
U nimadir, yer yuzini suv olgan?
U nimadir orqasida og'zi bor?
U nimadir, o'rtasida mag'zi bor?
U nimadir, suv ichida joni bor?

- Bulut bo'lar havodagi do'langan,
Yomg'ir bo'lar yer yuzini suv olgan,
Tegirmondor orqasida og'zi bor.
Bug'doy bo'lar o'rtasida mag'zi bor,
Baliq bo'lar suv ichida joni bor.

Topishmoqlarda xalq donishmandligi aks etadi. Ular o'ziga xos mazmuni va ularni ifodalash shakli bilan bolalarni ziyraklikka, kuzatuvchanlikka o'rgatadi, ularning fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi.

Topishmoqlar 1-4-sinflarning savod o'rgatish, imlo va nutq o'stirishga doir darslarida o'rganiladi. Ulardan grammatik mashq va tahlil matnlari sifatida foydalaniladi.

O'quvchilar 1-4-sinflarning o'qish va nutq o'stirish darslarida topishmoqlarni og'zaki aytish bilan o'z nutqlarini boyitadilar, takomillashtiradilar. Topishmoqqa javob topish bilan o'quvchilarning tafakkuri rivojlanadi; ular mantiqiy fikr yuritishga, solishtirish va qiyoslash yo'li bilan to'g'ri xulosaga kelishga ko'nikma hosil qiladilar. Topishmoq matnlarini o'qish natijasida to'g'ri o'qish malakasini egallay boradilar. O'qish darslaridagi topishmoq matni ustida ishlash jarayonida topishmoq janriga xos nazariy tushuncha ham oladilar. Ularda yashirin berilgan belgi, narsa, voqea va hodisa kabilarni to'g'ri va oson topish malakalariga ega bo'ladilar. Ona tili darslarida o'qituvchi o'quvchi faolligiga qarab ish ko'radi. Chunki o'quvchilar topishmoqda yashiringan narsaning nima

ekanligini bilishga qiziqadilar. Bu esa ularni har taraflama, chuqur va to'g'ri fikrlashga majbur etadi.

Topishmoqlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati katta. Ular ham, xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari kabi, xalqning urf-odati, psixologiyasi, axloqiy-estetik qarashlarini o'zida aks ettiradi. Topishmoqlar o'quvchilar fikrini kengaytirib, ularni diqqat bilan o'ylashga, kuzatuvchanlikka hamda mantiqiy fikr yuritishga o'rgatadi. Mantiqiy fikr yuritish esa bola nutqining o'sishiga yordam beradi. O'xshatish, qarama-qarshi qo'yish, metaforik tasvir usullari topishmoqlarning xarakterli xususiyatidir. Topishmoqlardagi taqqoslashlarni o'quvchilar xotirasida yaxshi qoldirish uchun predmetlarning o'zini yoki rasmini bolalarga ko'rsatish ma'qul.

Topishmoqlarni bolalarga tavsiya etishda albatta darslik va o'tilayotgan mavzuga mos bo'lishiga e'tibor beriladi. Masalan, 1-sinfda o'qishning 3-4-kunlari sabzavotlar haqidagi topishmoqni tavsiya etish mumkin. Bolalar savodga o'rgatishga tayyorgarlik davridayoq "Alifbe" kitobi bilan tanishtiriladi, undagi rasmlar haqida tushuncha beriladi. Sabzavotlar rasmi bo'yicha suhbat jarayonida topishmoq topishni ham tavsiya etish juda o'rinli bo'ladi.

Topishmoqlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti rivojlanishi bilan o'zgarib boradi, yangi-yangi ma'no va mazmun ifoda etadi.

O'quvchilar mustaqil holda topishmoqda berilgan predmetlarning rangiga, shakliga, maza-ta'miga qarab ularni bir-biriga taqqoslaydilar. Bu hol narsa-predmetlar haqidagi tasavvurning bolalar ongida uzoq saqlanishini ta'minlaydi, ularda topishmoqni ongli ravishda o'ylab topish ko'nikmasini shakllantiradi, ularning so'z boyligini o'stiradi. Topishmoqlar vositasida predmetlarning kelib chiqishi, yaratilishi, ularning inson hayotidagi roli tushuntiriladi.

Topishmoqda yashirin berilgan narsa va hodisa haqidagi tushuncha fanda qat'iy tasdiqlangan bo'lib, ilmiy uslublarga yaqin holda o'qituvchining ta'limiy uslubi asosida bayon etiladi.

Topishmoqlarning ta'limiy xarakteri kuchli. Odatda, topishmoqda tabiatdagi biror hodisa, jonli mavjudot biror narsaga yoki uning holatiga va biror hodisaga o'xshatish, taqqoslash orqali yashirin gavdalantiriladi.

O'quvchilar ongidagi mavhum tushunchalarning aniq tushunchalarga aylanishida mantiqiy mashqlar katta ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchi ulardan o'rinli foydalana olishi muhim ahamiyatga ega.

Mantiqiy og'zaki mashq 1-sinfda o'quv yilining birinchi yarmida, nutq o'stirish maqsadida olib boriladi. O'quv yilining ikkinchi yarmida esa, bu xil mashqlar murakkabroq tus oladi, ya'ni topishmoqlar og'zaki tahlil etilgandan so'ng, yozma holda tahlil etiladi.

Darslarda shunday holat ham uchraydiki, o'quvchilar matnni o'qish, yozish va ba'zan grammatik tahlil qilish bilan uzoqroq band bo'lib toliqadilar. Natijada o'quvchilar passivlasha boshlaydi. Topishmoqlar darsda uchraydigan bunday hollarning oldini olishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov Firuz Sulaymonovich, Istamova Shohida Maqsudovna. TYPES OF LEXICAL MEANINGS Journal of Critical Reviews (<http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.06.87>) (ISSN- 2394-5125) Vol 7, Issue 6, 2020.481-484b.
2. Istamova Shohida Maxsudovna Turk edebiyatinda ruyadan yararlanma gelenegi Filologiyeye ve kultur arastirmalari. (ISBN 978-605-9554-37-4.) Karabuk, 2019. Sehife 449-453.
3. Истамова Ш.М. Особенности мотивов сновидений в русском и узбекском письменных литературных источниках./ Филология меселелери. Озарбайжон Миллий илмлар академияси М.Фузулий номидаги кўлёмалар институти. “Елм ва техсил”. Баку, 2011. №13. –В. 430-436.
4. Истамова Ш.М. Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши. «Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований». Сборник материалов XXXIII Международной научно-практической конференции. 2017 –С.134-138.
5. Истамова Ш.М. Особенности мотивов сновидений в русском и узбекском письменных литературных источниках. Материалы XXI Международной научно-практической интернет конференции “Тенденции и перспективы развития науки и образования в условиях глобализации”. Сб.научн.трудов. Переяслав-Хмельницкий. 31 января 2017 год. Выпуск 21. –С.575-579.
6. Sh.Saidova, Sh. Istamova . Milliy maktabgacha ta'lim muassasalarida o'zga tilni o'rgatishga oid ayrim mulohazalar. “Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimini baholashda xalqaro tajribalardan foydalanish: muammo va yechimlar”. Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Buxoro, 14 mart 2020-yil.